

AUTIZM SINDROMLI BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RIVOJLANISHI VA ULARNI IJTIMOY MOSLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika:logopediya yo’nalishi
2-bosqich talabasi Yakubova Umida u.yakubova07@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456896>

Annotatsiya: autizm sindromining kelib chiqish sabablari, tasnifi, darajalari hamda ushbu sindromli bolalarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil etiladi. Autizmga xos asosiy belgi va muammolar, shuningdek, bolalarni ijtimoiy moslashtirishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: autizm, shizofreniya, diagnoz, aqli zaiflik, idrok reaksiyalari, autizm belgilari, ijtimoiy moslashuv, “ilk yoshdagi bolalar autizmi”.

Аннотация: В статье анализируются причины аутистического синдрома, его классификация, уровни, а также психолого-педагогические особенности обучения детей с этим синдромом. Освещены основные признаки и проблемы, характерные для аутизма, а также современные подходы к социальной адаптации детей.

Ключевые слова: аутизм, шизофрения, диагностика, умственная отсталость, когнитивные реакции, признаки аутизма, социальная адаптация, «аутизм в раннем

Abstract: The causes of autism syndrome, its classification, levels, and the psychological and pedagogical features of educating children with this syndrome are analyzed. The main signs and problems characteristic of autism, as well as modern approaches to the social adaptation of children, are highlighted.

Keywords: autism, schizophrenia, diagnosis, mental retardation, cognitive reactions, signs of autism, social adaptation, "autism in early childhood."

Kirish: Hozirgi kunda butun dunyoda alohida yordamga muhtoj bolalarni oʻrganish, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, ularni oldini olish, maxsus yordamga muxtoj bolalarga ta’lim tarbiya berish, ulardagi nuqsonlarni korreksiyalash boʻyicha koʻplab ishlar olib borilmoqda. Yurtimizda ham bunday bolalarga yuksak eʼtibor qaratilib, ularning huquq va erkinliklari qonun tomonidan kafolatlanib, ularning ta’lim va tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratilib kelmoqda.

Asosiy qism: “Autizm (yunoncha *auto* – oʻzi) tushunchasi dastlab 1910-yilda shveysariyalik psixiatr E. Bleyler tomonidan shizofreniya belgilari qatorida ilmiy muomalaga kiritilgan[1]”. Ushbu jumladan koʻrinadiki, dastlab autizm mustaqil rivojlanish buzilishi sifatida emas, balki boshqa ruhiy kasallik doirasida talqin qilingan. Bleyler autizmni insonning tashqi olamdan uzilib, ichki dunyosiga shoʻngʻib ketishi, ijtimoiy aloqalarning susayishi bilan izohlagan. Demak, autizm haqidagi ilmiy qarashlarning tarixiy bosqichini yoritadi. Keyinchalik autizm alohida rivojlanish buzilishi sifatida ajratib koʻrsatilgan boʻlsa-da, uning dastlabki taʼrifi aynan psixiatriya doirasida shakllanganini ushbu jumla tasdiqlaydi.

“Amerikalik psixiatr L. Kanner autizm sindromini mustaqil rivojlanish buzilishi sifatida ajratib koʻrsatdi. Uning taʼkidlashicha, autizmning uch asosiy belgisi mavjud: autistik kechinmalar, stereotip xulq-atvor va nutq rivojlanishidagi buzilishlar[2]”. Amerikalik psixiatr Leo Kanner autizm sindromini alohida, mustaqil rivojlanish buzilishi sifatida ilmiy jihatdan ajratib koʻrsatgan. U taʼkidlaganidek, autizmning uch asosiy belgisi bor: Autistik kechinmalar – yaʼni, insonning oʻz ichki dunyosiga berilib, tashqi olam bilan muloqotdan chekinishi. Stereotip xulq-atvor –

takrorlanuvchi, o‘zgarmas harakat va odatlar. Nutq rivojlanishidagi buzilishlar – so‘zlashishning kechikishi yoki o‘ziga xos tarzda rivojlanishi. Bu ta’rif autizmni boshqa psixologik yoki rivojlanish holatlaridan farqlashga yordam beradi va zamonaviy tibbiyotdagi autizm tushunchasiga poydevor bo‘lgan. Kannerning bu ishlari tufayli autizm alohida tashxis sifatida tan olingan.

“Autizm sindromli bolalarning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy muloqotda qiyinchilik (ko‘z bilan aloqa qilmaslik, qisqa muddatli aloqa), nutqning kech rivojlanishi yoki butunlay yo‘qligi, bir xil harakatlarni takrorlash, baland ovoz va yorqin nurga yuqori sezuvchanlik[3]”. Autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda buzilishlar, shuningdek, xulq-atvor bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator qiyinchiliklar birga keladi. Ko‘pincha bolalarga o‘zi nima qilishni bilsa o‘sha xatti-harakatni o‘rgatish osonroq. Autizm sindromli bolalar uchun harakatlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar o‘ziga xosdir. Bunda bolalarning xatti-harakatlarni mustaqil ravishda boshlashi, bir harakatdan ikkinchisiga o‘tish qiyinligini ko‘rishimiz mumkin.

“Autizm spektri buzilishiga ega shaxslar ta’limiy, xulq-atvoriy va oilaga asoslangan yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan holda, individual, erta va davomiy tarzda olib borilgan ta’sir choralari orqali sezilarli ijtimoiy integratsiyaga erisha oladilar[4].” Tony Charman ijtimoiy integratsiya jarayoni faqatgina bir martalik yoki qisqa muddatli aralashuvlar bilan samarali bo‘lishi qiyinligini ilmiy asosda tushuntiradi. U erta yoshda boshlanadigan va bolaning individual xususiyatlariga moslashtirilgan, uzoq muddatli hamda tizimli yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ta’limiy metodlar bolaning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga, xulq-atvor terapiyasi (ABA kabi) muomala va xatti-harakatlarni tuzatishga, oilaviy ishtirok esa bolaning kundalik hayotda qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki bolaning mustaqil hayot kechirish imkoniyatlarini ham oshiradi.

Bola va kattalar o‘rtasidagi hamkorlik jarayonida biz muvaffaqiyatga erishish holatlarini yaratamiz, bu maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy rivojlanishining muhim shartidir. Muvaffaqiyatli vaziyatni tashkil etish autizm sindromli bolalar bilan korreksion mashg‘ulotlarda optimistik yondashuv tamoyilini amalga oshirishgaimkon beradi. Ijobiy munosabatni saqlashga harakat qilish va uni bolaga o‘tkazish, bolaning ijobiy harakatlariga e’tibor qaratish va uning qilgan xato harakatlarini sezmaslik kerak

“Yengil darajadagi autizmga tarbiyachi bolaning kun tartibini moslashtirish, tengdoshlar bilan ijobiy aloqalarni shakllantirish, psixoterapevtik tushuntirish ishlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir [5]”. Ushbu fikrda yengil darajadagi autizmga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli juda muhim ekanligi ta’kidlangan. Chunki bunday bolalarda kundalik faoliyatning tartibli va barqaror bo‘lishi ularning o‘zini xavfsiz his qilishi hamda muhitga moslashishida katta ahamiyatga ega. Kun tartibini moslashtirish orqali bola stresssiz holda mashg‘ulotlarga jalb etiladi. Shuningdek, tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish bolada ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishiga yordam beradi. Psixoterapevtik tushuntirish ishlari esa bolaning xatti-harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, emotsional holatini barqarorlashtirish va o‘zini anglashiga xizmat qiladi. Shu sababli tarbiyachining bunday yondashuvi yengil autizmli bolalarning ta’lim-tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

“Autizmli bolalarning ta’lim olishi qulay bo‘lishi va ularning tashvishi kamayishi uchun ta’lim muhitini ularning sezgi va muloqot ehtiyojlariga moslashtirish lozim[6].” Temple Grandin o‘z tajribasiga tayangan holda autizmli bolalarning o‘quv jarayonidagi asosiy qiyinchiliklaridan biri sezgi ortiqcha yuklanishi (sensory overload) ekanini ko‘rsatadi. Yorug‘lik, shovqin, keskin tovushlar, ranglar yoki hatto kiyim matosining tuzilishi bolalarda tashvish va chalg‘ishni kuchaytiradi. Shu sababli ta’lim muassasalari sharoitida sezgi jihatdan moslashtirilgan o‘quv

muhitini yaratish, vizual ko’rsatmalar va aniq jadvaldan foydalanish, o’quv jarayonini kichik bo’lamlarga ajratish, dam olish burchaklarini tashkil etish kabi choralar bolalarning o’zlarini xavfsiz his qilishiga va bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

“Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, dunyoda 10 milliondan ortiq bolaga autizm tashxisi qo’yilgan bo’lib, so’nggi yillarda bu ko’rsatkich yiliga o’rtacha 11 foizga oshmoqda[7].” Manbada ta’kidlanishicha so’nggi yillarda ushbu ko’rsatkich yiliga o’rtacha 11 foizga oshib bormoqda. O’tgan asrning 90-yillarida har 5000 boladan birida uchragan bo’lsa, hozirgi kunda bu nisbat 1:50 ga yetgani ta’kidlanadi. Mazkur ma’lumotlar autizm muammosining bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-pedagogik masalaga aylanganini ko’rsatadi. Bu esa erta tashxis qo’yish, korreksion ishlarni kuchaytirish hamda jamiyatda xabardorlikni oshirish zarurligini anglatadi.

“Ijtimoiy hikoyalar va tengdoshlar ishtirokida amalga oshiriladigan mashg’ulotlar autizm spektri buzilishiga ega bolalarning ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali strategiyalar ekanini isbotlagan[8].” Carol Gray ishlab chiqqan “Ijtimoiy hikoyalar” metodikasi bolaga turli hayotiy vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini oddiy, aniq va vizual tarzda tushuntiradi. Bu metod bolalarning notanish vaziyatlarda o’zini qanday tutishni oldindan bilib olishini, shu orqali tashvish darajasini kamaytirishini ta’minlaydi. Tengdoshlar ishtirokidagi mashg’ulotlar esa tabiiy ijtimoiy muhitni yaratib, muloqot va hamkorlik ko’nikmalarini mustahkamlaydi. Natijada bolalar faqat kattalardan emas, balki o’z tengdoshlari orqali ham ijtimoiy qoidalarni o’rganadi, bu esa moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birgalikda autizm spektr buzilishiga ega bolalarda ijtimoiy ko’nikmalar: muloqot qilish, hamkorlikda o’ynash, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish ko’pincha tabiiy ravishda shakllanmaydi. Shu sababli, bu ko’nikmalarni maqsadli mashqlar va moslashtirilgan ta’lim metodlari orqali rivojlantirish zarur.

“O’zbekistonda autizmli bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning kompleks yondashuvini talab etadi[9]”. Mazkur fikr autizmli bolalarni ijtimoiy moslashtirish jarayonida sensor integratsiya masalalarini chuqur o’rganish muhimligini ko’rsatadi. Shuningdek, har bir bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish zarurligini asoslaydi. Bu esa samarali korreksion-pedagogik ishlarni yo’lga qo’yishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois autizmli bolalarni ijtimoiy moslashtirishda sensor integratsiya jarayonlarini o’rganish va shaxsning kuchli hamda zaif jihatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda individual yondashuvni maxsus pedagogik metodlar bilan uyg’unlashtirish ularning jamiyatga moslashish jarayonini tezlashtiradi[10].” Xudoyberdiyeva autizmli bolalarni o’qitishda yagona standart dasturdan foydalanish o’rniga har bir bolaning shaxsiy rivojlanish darajasi, qiziqishlari va qiyinchiliklarini hisobga olgan holda ta’lim strategiyasini ishlab chiqish lozimligini ta’kidlaydi. Bu jarayonda maxsus pedagogik metodlar — vizual qo’llanmalar, strukturalangan ta’lim, qadam-baqadam instruktsiyalar va o’yin orqali o’rgatish kabi usullar juda muhim. Ushbu uyg’unlik bolaning ijtimoiy signallarni tushunish, muloqot qilish va o’zini boshqarish ko’nikmalarini tezroq rivojlantiradi.

“Autizm sindromli bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish — ularning kelgusidagi hayot faoliyati uchun asosiy poydevordir[11].” Sattorova kommunikativ kompetensiya tushunchasiga nafaqat so’zlashuv, balki tinglash, javob qaytarish, neverbal signallarni tushunish, hissiy ifodalarni anglash kabi ko’nikmalar kirishini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, kommunikativ malakalarni shakllantirish bo’lajak kasbiy faoliyat, mustaqil hayot va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatning kalitidir. Shu sababli logopedik mashg’ulotlar, ijtimoiy o’yinlar va real hayot vaziyatlarini simulyatsiya qilish kabi metodlar birgalikda qo’llanilishi kerak. Darhaqiqat, autizm sindromiga ega bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ularning kelgusidagi hayot

faoliyati uchun mustahkam poydevor hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya — bu nafaqat og‘zaki yoki yozma muloqot qilish, balki tinglash, tushunish, javob qaytarish, hissiy holatlarni ifodalash va boshqalarni tushunish kabi ko‘plab ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Autizmli bolalar ko‘pincha muloqotga kirishish, suhbatni davom ettirish yoki ijtimoiy signallarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois, bu ko‘nikmalarni shakllantirishda maxsus pedagogik metodlar, vizual qo‘llanmalar, ijtimoiy hikoyalar, rolli o‘yinlar va muloqotga rag‘batlantiruvchi faoliyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

“Oila va pedagog o‘rtasidagi muntazam hamkorlik — autizmli bolalarning jamiyatga moslashishi uchun zarur shartdir.”[12] Jo‘rayevga ko‘ra, autizmli bolalarning rivojlanish jarayoni faqat ta’lim muassasasida emas, balki uy sharoitida ham davom etishi lozim. Ota-onalar pedagog bilan muntazam uchrashib, bolaning rivojlanish bosqichlarini muhokama qilishi, uyda ham maxsus mashg‘ulotlarni davom ettirishi kerak. Bunday hamkorlik bolaning o‘qishdagi va kundalik hayotdagi ko‘nikmalarini uyg‘unlashtiradi hamda yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish jarayonini tezlashtiradi. Shubhasiz, oila va pedagog o‘rtasida muntazam hamkorlik autizmli bolalarning jamiyatga moslashishi uchun zarur shartdir. Chunki autizmli bolalar bilan ishlash jarayoni faqat ta’lim muassasasida emas, balki uy sharoitida ham izchil davom etishi kerak. Agar pedagoglar va ota-onalar o‘zaro ma’lumot almashib, bir xil metodik yondashuvlardan foydalansalar, bola uchun barqaror va tushunarli o‘quv muhiti yaratiladi.

Uy va maktabdagi talablar hamohang bo‘lishi bolaning chalkashmasligiga, yangi o‘rgangan ko‘nikmalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishiga yordam beradi. Masalan, maktabda o‘rgatilgan muloqot usullari yoki o‘zini tutish qoidalari uyda ham qo‘llansa, bola buni mustahkam o‘zlashtiradi.

Xulosa. Ota-ona va pedagogning yaqin hamkorligi bolaning individual ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlash, rivojlanishdagi o‘zgarishlarni kuzatib borish va kerak bo‘lsa, ta’lim strategiyasini o‘z vaqtida moslashtirish imkonini beradi. Bu esa autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi va ularning hayot sifatini yaxshilaydi. Autizm spektr buzilishiga ega bolalar bilan ishlash jarayonida individual yondashuv, maxsus pedagogik metodlar va oila hamda pedagog o‘rtasidagi muntazam hamkorlik o‘zaro uyg‘unlashganda, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Har bir bolaning sensor va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish, ijtimoiy ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va o‘rgangan malakalarni turli hayotiy vaziyatlarda mustahkamlash — ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishida asosiy omillardir.

Shuningdek, ota-ona, pedagog va mutaxassislarning birgalikdagi sa’y-harakatlari autizmli bolalarning o‘zini namoyon qilishiga, mustaqillik darajasining ortishiga va kelgusidagi hayot sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Demak, inklyuziv va moslashtirilgan ta’lim muhiti yaratish nafaqat bolalarning rivojlanishiga, balki ularning jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida o‘z o‘rnini topishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika). – Toshkent: “Niso Poligraf”, 2017. – B. 151–152.
2. Mo‘minova L.R. Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish yo‘llari. – Toshkent: “Spectrum Media Group”, 2015. – B. 11–12.
3. Kagan V.E. Psixologiya anomaliy rivojlanish. – Moskva, 2014. – B. 78–82.
4. Charman, T. (2011). Developmental approaches to intervention in autism spectrum disorder. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 52(3), 271–290.
5. Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika).- Toshkent: “Niso Poligraf”,2017.- B.160.

6. Grandin, T. (2015). *The Way I See It: A Personal Look at Autism and Asperger’s*. Future Horizons, p. 102.
7. World Health Organization. *Autism spectrum disorders*. – Geneva: WHO, 2023. – P. 4–6.
8. Gray, C. (2010). *The New Social Story Book*. Future Horizons, p. 18.
9. Mo‘minova L.R. *Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish yo‘llari*. – Toshkent: “Spectrum Media Group”, 2015. – B. 45.
10. Xudoyberdiyeva, X. (2020). *Maxsus pedagogika asoslari*. Toshkent: Fan, 154-bet.
11. Sattorova, M. (2019). *Defektologiya nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 212-bet.
12. Jo‘rayev, S. (2021). *Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 98-bet.